



O'ZBEKISTONDA BARQAROR TURIZM RIVOJLANISHINING HOZIRGI HOLATI VA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI

Tolipova Mahliyo Qobil qizi,

O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi huzuridagi Turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti

E-mail: salomstudent1@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

ANNOTATION

Qabul qilindi: 6-oktabr 2025-yil

Tasdiqlandi: 8-oktabr 2025-yil

Jurnal soni: 16

Maqola raqami: 34

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1271>

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/

KEYWORDS

Ekoturizm, turizm industriyasi, smart turizm, ekologik ong, sayohat paketi, raqamli turistik xarita.

Ushbu maqolada barqaror turizm tushunchasi va uning nazariy hamda amaliy jihatlarini o'rganilgan hamda O'zbekistonda barqaror turizm sohasining hozirgi rivojlanish bosqichi, davlat siyosatida tutgan o'rni va ahamiyati chuqur tahlil qilingan. Xususan, mamlakatimizda ekoturizmni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar, dasturlar, infratuzilmani modernizatsiya qilishga qaratilgan loyihalar hamda ularning natijalari yoritilgan. Tadqiqotda ichki va tashqi omillar ta'sirida barqaror turizmni rivojlantirish jarayonida kuzatilayotgan muammolar, mavjud to'siqlar hamda sohadagi ayrim tizimli kamchiliklar aniqlangan. Statistik ma'lumotlar asosida O'zbekistonning barqaror turizmi yillar kesimida qanday o'sish dinamikasiga ega bo'layotgani, turistik oqim, infratuzilma va investitsiyalar hajmining o'zgarish tendensiyalari rasm va jadvallar orqali tahliliy tarzda ko'rsatib berilgan. Shuningdek, maqolada milliy sharoitdan kelib chiqib, barqaror turizmni yanada rivojlantirish, ekologik muvozanatni saqlash, mahalliy aholining turmush darajasini oshirish hamda turistik faoliyatda innovatsion yondashuvlarni qo'llashga doir samarali yo'nalishlar taklif etilgan.

Kirish. Bugungi kunda turizm sohasi jahon miqyosida eng tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan tarmoqlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasida ham turizmning barcha yo'nalishlarini, shu jumladan barqaror turizmni rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Barqaror turizm – bu ekologik muvozanatni saqlagan holda, mahalliy aholining ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini inobatga olgan tarzda tashkil etiladigan sayohat faoliyatidir. Ushbu yondashuv nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilishni, balki mahalliy jamiyat farovonligini ta'minlashni ham ko'zda tutadi. Barqaror turizm konsepsiyasi bugungi kunda global darajada dolzarb masalaga aylanib bormoqda va O'zbekiston uchun ham strategik ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda turizm tarmoqlarini diversifikatsiyalash, ichki va tashqi turizmni iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida rivojlantirish, shuningdek, tarixiy-madaniy meros obyektlarining iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonlar turizmni milliy iqtisodiyotning barqaror o'sish omillaridan biriga aylantirish yo'lida muhim ahamiyat kasb etadi.

"Turizmga iqtisodiyotning strategik sektori maqomini berish, ushbu sohani barcha hududlarni va o'zaro bog'liq tarmoqlarni kompleks ravishda jadal rivojlantirishning yetakchi kuchiga aylanishi lozim bo'lgan iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, tarkibiy o'zgartirish va barqaror rivojlanishning qudratli vositasiga aylantirish, yaratiladigan yalpi ichki mahsulotda, mahalliy byudjet daromadlarida turizmning ulushini ko'paytirish, ish bilan bandlikni ta'minlash, aholining turmush darajasi va sifatini oshirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish"¹ o'rta muddatli istiqbolda turizm sohasidagi davlat siyosatining maqsadli vazifalari va ustuvor yo'nalishlari bir etib belgilangan.

Xususan, MOST ("Markaziy Osiyoda barqaror turizm modeli: salohiyatni yaratish, xabardorlikni oshirish, texnologiyalarni joriy etish") loyihasi O'zbekiston ham ishtirok etayotgan muhim mintaqaviy tashabbuslardan biri hisoblanadi. Mazkur loyiha Markaziy Osiyo mamlakatlarining sayyohlik salohiyatini kuchaytirish hamda barqaror turizm tamoyillarini amalga oshirishga qaratilgan. Loyiha Yevropa Ittifoqi tashabbusi bilan SWITCH-ASIA dasturi doirasida amalga oshirilmoqda. Ommaviy axborot vositalarining, xususan daryo.uz nashrining xabar berishicha, loyiha faoliyati ekologik xabardorlikni oshirish, shuningdek, Markaziy Osiyo mamlakatlarida turizm sohasi uchun ilg'or amaliyot va texnologiyalarni tatbiq etishga qaratilgan. Loyihaning strategik maqsadi – mintaqada ekologik barqarorlik tamoyillarini turizm biznesiga integratsiya qilish orqali iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy farovonlikni ta'minlashdan iborat.

Tashabbusni amalga oshiruvchi tashkilot sifatida O'zbekiston Xususiy sayyohlik tashkilotlari uyushmasi (XSTU) faoliyat yuritmoqda². Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi jadal rivojlanib borayotgan global turizm tizimida munosib o'rin egallashga intilmoqda. Mamlakatda barqaror, raqobatbardosh va innovatsion turizm modelini shakllantirish orqali xalqaro miqyosda milliy turizm brendining nufuzini oshirish, iqtisodiyotning ushbu strategik tarmog'ini yanada rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar izchil amalga oshirilmoqda.

Adabiyotlar tahlili. So'nggi yillarda turizm sohasiga nisbatan qiziqishning ortib borishi natijasida ushbu yo'nalishda ko'plab olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Bu holat, bir tomondan, mavzuning dolzarbligini yaqqol tasdiqlasa, ikkinchi tomondan, mavjud ilmiy tadqiqotlar va nazariy manbalarni tahlil qilish orqali mazkur ishning ilmiy-nazariy asoslarini yanada mustahkamlash imkonini beradi. Shu boisdan, turizmning barqaror rivojlanish tamoyillarini, ularning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy jihatlarini chuqur o'rganish zamonaviy ilmiy izlanishlarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Barqaror turizm rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar ustida tadqiqot olib borar ekan, Maria Vodenska (2020) Bolgariya turistik manzilgohlarida turizmning barqarorligini qanday mezonlar asosida hisoblash mumkin, degan savol ostida mahalliy aholini faol jalb qilish uslubidan foydalanadi va jami 5000 ta so'rovnoma tarqatilib, javoblar asosida kerakli xulosalarni olishga muvaffaq bo'ladi³. O'tkazilgan so'rov mahalliy aholining turizm ta'sirini umumiy va batafsil idrok etishda mahalliy aholi fikrining muhim rolini ochib beradi. Vodenska mavsumiylikni asosiy omillardan deb topib, turli boshqaruv vositalarini amalga oshirish va Bolgariyani 4 fasllik yo'nalishga aylantirish orqali turizmni barqarorlashtirish strategik maqsadini bayon qiladi.

Vetnamda barqaror turizmga ta'sir etuvchi faktorlarni baholash maqsadida izlangan bir qator olimlar, xususan, A. Mai, K. Thi, T. Thi, T. Le (2020) davlat boshqaruvi organlari va turizm korxonalarida jami 329 ta anketa to'playdilar va javoblar Vetnamda turizmning barqaror rivojlanishiga yettita omil ta'sir qilayotganligini ko'rsatadi⁴. Ular mos ravishda boshqaruv malakasini, turizm xizmati sifatini, turizm kadrlari sifatini, infratuzilmani rivojlantirishni, moddiy turizm obyektlarini va turizm resursini egallaydi.

O. Astanakulov (2024) mamlakatda turizm infratuzilmasini rivojlantirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, soha rivoji yo'lida ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish, inson kapitalini mustahkamlash hamda ichki turizmni rag'batlantirish kabi kompleks

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev raisligida 2020-yilning 22-fevral kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishidagi ma'ruzasi - <https://daryo.uz/k/2018/02/23/shavkat-mirziyoyev-har-bir-turist-investitsiya-video/>.

² O'zbekiston Xususiy sayyohlik tashkilotlari uyushmasi haqida ma'lumot: <https://orginfo.uz/uz/organization/534f8fa7c621>

³ Vodenska, M. (2020). Factors for (Un) Sustainable Tourism Development. Central European Journal and <https://doi.org/10.47246/CEJGSD.2020.2.1.2>

⁴ Mai, A., Thi, K., Thi, T., & Le, T. (2020). Factors influencing on tourism sustainable development in Vietnam. Management Science Letters, 10(8), 1737-1742.


choralar O'zbekiston turizmining barqarorligini ta'minlashda muhim omillar sifatida namoyon bo'lishini ta'kidlaydi⁵. Tadqiqotchining fikricha, aynan ushbu yo'nalishlardagi izchil harakatlar milliy turizm tizimining raqobatbardoshligini oshirish va uni xalqaro standartlarga yaqinlashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda O'zbekiston Respublikasida barqaror turizmning hozirgi rivojlanish holatini o'rganish maqsadida mamlakat olimlari tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar, tajribalar, so'rovnomalarni va ilmiy maqolalarga tayanildi. Shuningdek, qiyosiy tahlil va taqqoslash metodologiyasini qo'llash orqali xorijiy olimlarning ilmiy-amaliy ishlari ham o'rganildi. Bundan tashqari, Jahon turizm tashkiloti (UN Tourism) ma'lumotlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy hisobotlari asosida statistik tahlil amalga oshirildi. Analiz va sintez metodlari yordamida yillar kesimida mamlakatga kirib kelayotgan xorijiy turistlar oqimi, joylashtirish vositalarining sig'imi va ularning dinamikasi, shuningdek, turizm sohasida malakali kadrlar tayyorlash jarayoniga berilayotgan e'tibor ko'rsatkichlari tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari. Mamlakatimizda ichki turizmni rivojlantirish uchun bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilgan. Masalan, davlat tomonidan bir qator arzonlashtirilgan turpaketlar joriy etildi. Shuningdek, turistik xizmatlar va mehmonxonalar tarmog'ini kengaytirish bo'yicha ko'plab loyihalar amalga oshirilgan⁶. Xususan, Toshkent shahrida "Hyatt Regency Tashkent", "Tashkent city park" brendli mehmonxona, dam olish tantanalar majmuasini ochilishi, Samarqand shahrida "Buyuk ipak yo'li" xalqaro turizm markazi, Bo'stonliq tumanida Amirsoy tog'-chang'i kurortining 2 bosqichli qurilishi, Andijon, Urganch va Toshkent shahrida madaniy-ko'ngilochar bog'larning tashkil etilishi, "Angren-Pop" temir yo'li ochilishi, Buxoro, Qarshi, Shahrisabz va Xiva shaharlariga tezyurar poezdlar uchun elektrlashtirilgan temir yo'llari ochilishi, loukosterlar jalb qilinishini aytib o'tish joiz. Yana misol tariqasida aytadigan bo'lsak, 2022 yilda "davlat-xususiy sherikchilik" asosida 212 gektar yer maydonda bunyod bo'lgan Samarqand xalqaro turizm markazi tumanning eshak eshish kanali bo'yida joylashgan bo'lib, bu yerda 10 ta zamonaviy turdagi bino-inshootlar: kongress xoll, dam olish maskanlari, 8 ta mehmonxona, "Abadiy shahar" karvon saroyi bunyod etilgan.

Xalqaro miqyosda O'zbekistonni jozibali turistik qadamjo sifatida dunyoga tanitish mamlakat turizm sanoatining rivojlanishida jiddiy ahamiyat kasb etadi. Bunda international ko'lamdagi sayyohlik yarmarkalarida ishtirok etish – ITB Berlin, WTM London kabi yirik ko'rgazmalarda mamlakatimiz imkoniyatlarini namoyish etish va xorijiy turoperatorlar bilan aloqalarni mustahkamlash: O'zbekiston turizm salohiyatini Yevropa, Shimoliy Amerika, Osiyo Tinch okeani, Yaqin Sharq, Xitoy va Markaziy Osiyo mintaqalarida yirik masshtablarda namoyish eta olish maqsadida umumiy hisobda 600 mln auditoriyaga ega bo'lgan "BBC WORLD NEWS", "EURONEWS" (umumiy auditoriyasi 800 mln.) va umumiy hisobda 1 milliard kuzatuvchini o'zida jamlashga muvaffaq bo'lgan "SNN", 500 million obunachiga ega "Ctrip.com" onlayn sayohat platformasi va xalqaro mediakorporatsiyalari, shuningdek, 100 mln auditoriyani o'ziga jalb etgan "Visa Facilitation Services Global" tashkilotlari bilan shartnomalar asosida xalqaro miqyosda mamlakatimiz imiji ilgari surildi⁷.

O'zbekistonning xalqaro turizm bozoridagi nufuzini oshirish hamda xorijiy sayyohlar oqimini kengaytirish maqsadida Turizm qo'mitasi tomonidan bir qator amaliy tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Shulardan biri sifatida Xitoy Xalq Respublikasining ijtimoij tarmoqlarida millionlab obunachilarga ega bo'lgan mashhur blogerlar uchun O'zbekiston bo'ylab press-tur tashkil etildi. Ushbu tashabbusning asosiy maqsadi – O'zbekistonning boy tarixiy merosi, madaniy xilma-xilligi va zamonaviy turizm infratuzilmasini keng xalqaro auditoriyaga, xususan, Xitoylik kuzatuvchilar orasida ommalashtirishdan iboratdir. Press-tur davomida blogerlar Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkent shaharlarida bo'lib, o'zlarining ijtimoij tarmoq sahifalarida mamlakatga oid taassurotlarini, milliy an'analar, mehmondostlik va gastronomik turizmga oid foto hamda videomateriallar orqali yoritib bordilar. Natijada, mazkur press-tur O'zbekistonning xalqaro turizm imijini yanada mustahkamlash, ikki mamlakat o'rtasidagi turistik hamkorlik aloqalarini kengaytirish hamda Xitoy bozoridan keluvchi sayyohlar sonini oshirishga xizmat qiluvchi samarali kommunikatsion vosita sifatida baholanishi mumkin. Shu bilan birga, bu kabi ommaviy axborot va raqamli marketing tashabbuslari milliy turizm strategiyasida muhim o'rin tutib, barqaror turizmni rivojlantirish jarayonining tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda⁸.



1-rasm. 2020-2025 yillarda turistik maqsadda O'zbekiston Respublikasiga tashrif buyurgan xorijiy fuqorolar statistikasi (yanvar-sentabr)⁹

1-rasmda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, so'nggi yillarda O'zbekistonda xorijiy turistlarni jalb etish borasida amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar o'zining ijobiy natijasini bermogda. Statistik tahlil shuni ko'rsatadiki, 2020-2025 yillar oralig'ida mamlakatga tashrif buyurgan xorijiy fuqarolar soni 1,4 milliondan 7,2 million nafarga yetgan bo'lib, bu 5 yil davomida deyarli 5 baravar

o'sishni anglatadi. Shuningdek, 2025-yilning yanvar-sentabr oylarida mamlakatimizga 8,6 milliondan ortiq turist tashrif buyurgani, O'zbekiston har oyda o'rtacha 1 million nafardan ziyod sayyohni qabul qilayotganini ko'rsatadi. Bu holat turizm infratuzilmasining yaxshilanishi, transport-logistika tizimining rivojlanishi hamda xalqaro reklama va marketing kampaniyalarining samarali olib borilayotganidan

⁵ Astanakov O. (2024). O'zbekistonda turizm samaradorligini baholash va uni rivojlantirish istiqbolлари. Qo'qon universiteti xabarnomasi, 13, 16-21.

⁶ Toirova, M., & Yoldoshev, A. (2025). OZBEKISTONDA ICHKI VA TASHQI TURIZM: HOLATI, MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI. Journal of universal science research, 3(4), 103-110.


⁷ Raimjanova Madina Asrarovna. (2024). O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI. Ta'lim Innovatsiyasi Va Integratsiyasi, 11(8), 10–20. izвлечено от <https://web-journal.ru/ilmij/article/view/2373>

⁸ <https://gov.uz/uzbektourism/news/view/82136>

⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O'zbekiston Respublikasida turizm sohasi faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari (2020–2025 yillar). — <https://stat.uz/ma'lumotlari/asosida/muallif/ishlamasi>

dalolat beradi. Turizm qo'mitasi tomonidan taqdim etilgan rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilda xorijiy turistlar oqimi post-pandemik 2022-yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan. Jumladan: Buyuk Britaniyadan kelgan sayyohlar soni 2,6 baravar, Qatardan 6,2 baravar, AQShdan 3 baravar, Fransiya 2,9 baravar, Rossiyadan 2,1 baravar, Vengriyadan 3,3 baravar, Germaniyadan 2,5 baravar, Polshadan 6,2 baravarga oshgan.

Bundan tashqari, 2025-yilda O'zbekistonning turistik xizmatlar eksporti hajmi ham rekord daraja – 3,6 milliard AQSh dollaridan ortiq ko'rsatkichga yetgani qayd etilgan. Mazkur o'sish mamlakat turizm sohasining iqtisodiy salohiyati ortib borayotganini va barqaror rivojlanish yo'nalishida ijobiy tendensiyalar shakllanayotganini ko'rsatadi¹⁰.



2-rasm. 2025 yilning yanvar-iyun oylarida O'zbekistonga kelgan xorij fuqarolari safar maqsadlari bo'yicha taqsimoti¹¹


Respublikamiz hududiga tashrif buyurgan xorijiy mehmonlarning kelish maqsadlari tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston turizmi ko'p yo'nalishli bo'lishiga qaramay, hozircha asosiy oqim qarindosh-urug'larni ziyorat qilish maqsadida kelayotgan sayyohlarga to'g'ri kelmoqda. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilning yanvar-sentabr oylarida mamlakatimizga kelgan xorijiy fuqarolarning 3 million 596 ming 799 nafari aynan o'z yaqinlarini ko'rish va ziyorat qilish uchun tashrif buyurgan. Bu raqam umumiy sayyohlar oqimining yarmidan ko'pini tashkil etadi va diniy, madaniy hamda oilaviy qadriyatlarining O'zbekiston turizmida muhim o'rin tutayotganidan dalolat beradi.

Shuningdek, sayohat va xizmat safarlari maqsadida kelgan xorijiy turistlar soni ham salmoqli ulushni egallaydi: 1 million 377 ming 719 nafar mehmon aynan ushbu yo'nalish doirasida mamlakatimizga tashrif buyurgan. Bu ko'rsatkich O'zbekistonning nafaqat ziyorat va madaniy turizm markazi, balki xizmat ko'rsatish, biznes aloqalari va xalqaro uchrashuvlar uchun ham qulay maskan sifatida tanilayotganini anglatadi.

Tibbiyot va ta'lim turizmi esa hozircha nisbatan kam miqdorda xorijiy mehmonlarni jalb qilmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, 48557 nafar

kishi sog'lomlashtirish yoki davolanish maqsadida kelgan bo'lsa, 9546 nafar xorijlik O'zbekiston oliy o'quv yurtlari va ta'lim muassasalariga o'qish yoki qisqa muddatli kurslar uchun tashrif buyurgan. Bu raqamlar hali bu yo'nalishlarda katta salohiyat mavjudligini, ammo marketing, infratuzilma va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Pandemiya davridan so'ng O'zbekiston turizm sohasida tiklanish va barqarorlashuv bosqichini bosib o'tdi. 2020-2021-yillardagi global inqiroz, chegara yopilishlari va sayohat cheklovlariga qaramay, mamlakatimiz turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, vizasiz rejimlarni kengaytirish, xalqaro marketingni kuchaytirish orqali qisqa fursatda salmoqli natijalarga erishdi. 2022-yildan boshlab xorijiy sayyohlar oqimining yil sayin o'sib borayotgani, 2025-yilga kelib esa rekord darajalarga yetgani bunga yaqqol misoldir. Shu tariqa, turizmning asosiy tarmoqlarida, xususan ziyorat, xizmat, ta'lim va tibbiyot yo'nalishlarida bosqichma-bosqich rivojlanish kuzatilmoqda. Kelgusida davlat siyosati va xususiy sektor tashabbuslari uyg'unligida ushbu diversifikatsiya jarayoni yanada chuqurlashib, O'zbekistonni Markaziy Osiyoning yetakchi turistik markazlaridan biriga aylantirish istiqboli yanada mustahkamlanadi.



3-rasm. 2018-2025 yillar davomida O'zbekiston turistlarining xorijiy va ichki turistlar kesimidagi tahlili¹²

¹⁰ <https://gov.uz/oz/uzbektourism/news/view/93319>

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O'zbekiston Respublikasida turizm sohasi faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari (2020–2025 yillar). — <https://stat.uz> ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

¹² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O'zbekiston Respublikasida turizm sohasi faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari (2020–2025 yillar). — <https://stat.uz> ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

3-rasmda keltirilgan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, 2018–2025-yillar oralig'ida O'zbekiston turizmida xorijiy hamda ichki sayohatlar hajmi keskin o'zgarishlarga uchragan. Avvalo, 2020–2021-yillarda butun dunyo bo'ylab kuzatilgan COVID-19 pandemiyasi mamlakatimiz turizmiga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi. Chegaralarning yopilishi, aviaqatnovlarning cheklanishi va xalqaro sayohatga qo'yilgan taqiq natijasida xorijiy sayyohlar soni 2019-yildagi ko'rsatkichlardan bir necha baravar kamayib, mos ravishda 1,5 million va 1,9 million nafarga tushib ketdi.

Biroq, pandemiyadan so'ng mamlakatimiz hukumati tomonidan turizمنى tiklashga qaratilgan strategik chora-tadbirlar – soddalashtirilgan viza tizimi, xalqaro reklama kampaniyalari, yangi aviareyslarning yo'lga qo'yilishi hamda infratuzilmaviy loyihalarning amalga oshirilishi – qisqa muddatda o'z natijasini bera boshladi. 2022-yilda xorijiy turistlar soni keskin o'sdi, 2024-yilga kelib esa bu ko'rsatkich pandemiya davri boshiga nisbatan qariyb 9–10 barobarga oshgani kuzatildi. Bu esa O'zbekistonning xalqaro turizm xaritasida tobora faolroq ishtirok etayotganidan dalolat beradi.

2025-yil yakuniga kelib mamlakatga tashrif buyuruvchi xorijiy sayyohlar soni 11,8 million nafarga yetishi prognoz qilinmoqda. Ushbu raqam nafaqat pandemiyagacha bo'lgan darajani tiklash, balki uni bir necha baravar oshirish imkoniyatiga ega bo'lgan turizm siyosati samaradorligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, 3-rasmda ichki turizm bo'yicha ham ijobiy dinamika kuzatish mumkin. Mahalliy aholi orasida dam olish, ziyorat, ekologik va madaniy sayohatlarga bo'lgan qiziqish yildan-yilga ortib bormoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, har yili 1,5–2 million nafarga yaqin ichki sayohatchilar sonining o'sib borayotgani mamlakat ichki turizm infratuzilmasining kengayib, transport, mehmonxona va servis xizmatlarining sifat jihatidan yaxshilanayotganini ko'rsatadi. Umuman olganda, 2018–2025-yillar davomida O'zbekiston turizmi pandemiya sharoitidagi inqirozdan so'ng barqaror tiklanish bosqichini bosib o'tib, hozirda jadal rivojlanish yo'lga kirgani kuzatilmoqda. Ichki va xorijiy turizmning parallel ravishda rivojlanishi esa milliy iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri sifatida turizmning o'sish sur'atlarini yanada mustahkamlaydi.

Muhokama. O'zbekiston Respublikasida ekologik turizمنى rivojlantirish jarayonida qator tizimli muammolar mavjud bo'lib, ularni bartaraf etish ushbu yo'nalishda barqaror rivojlanishni ta'minlashning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Eng avvalo, ushbu muammolarning ildizi ekologik turizm sohasida malakali kadrlar yetishmasligi bilan bog'liq. Bugungi kunda ekoturizmning mohiyatini chuqur anglaydigan, ekologik xavfsizlik talablari, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish tamoyillari hamda xalqaro ekologik standartlarni puxta biladigan mutaxassislarni tayyorlash zarurati dolzarb masalaga aylangan. Mazkur sohada ilmiy-amaliy bilimlarga ega gidlar, ekologik yo'nalishdagi menejerlar, marketing mutaxassislari va ekologik sertifikatlash tizimini yurituvchi kadrlarning yetishmasligi O'zbekistonda ekoturizmning jadal rivojlanishiga to'siq bo'lmoqda.

Shu boisdan, mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalari, xususan, turizm va ekologiya yo'nalishidagi fakultetlarda o'quv dasturlarini xalqaro tajriba asosida modernizatsiya qilish, amaliy mashg'ulotlarni milliy tabiat bog'lari, qo'riqxonalar va ekomarkazlarda o'tkazish, shuningdek, xorijiy tajribaga ega mutaxassislarni jalb etish zarur. Bu borada davlat organlari, turizm qo'mitalari hamda xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish ekologik turizm sohasida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash uchun mustahkam poydevor yaratadi. Umuman olganda, ekoturizmning barqaror rivojlanishi bevosita inson kapitalining sifati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ushbu yo'nalishda malakali mutaxassislarni yetishtirish – O'zbekistonning ekologik turizm salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishdagi eng muhim strategik vazifalardan biridir. 2024-yil 10-fevral kuni Toshkent viloyatida o'z faoliyatini boshlagan Markaziy Osiyodagi birinchi ekologik yo'nalishga ixtisoslashgan oliy ta'lim muassasasi – Green University ekologik turizm sohasida malakali kadrlar yetishmasligi muammosini hal etish yo'lida tashlangan muhim strategik qadam sifatida e'tirof etiladi. Mazkur universitetning asosiy maqsadi — ekologik barqarorlik tamoyillariga asoslangan ta'lim tizimini yaratish, turizm va atrof-muhitni muhofaza qilish sohalarida zamonaviy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlashdir. Green University ta'lim dasturlari xalqaro tajriba va ilg'or o'quv metodikalarga tayangan holda ishlab chiqilgan bo'lib, unda ekologik menejment, barqaror turizm, yashil iqtisodiyot va raqamli ekologiya kabi fanlar ustuvor yo'nalish sifatida kiritilgan.

Universitet faoliyatining yo'lga qo'yilishi O'zbekistonda ekoturizm sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish, shuningdek, ekologik muammolarga nisbatan yosh avlodga mas'uliyatli yondashuvni shakllantirish imkonini beradi. Natijada Green University nafaqat mamlakat, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasida ekologik ta'lim va barqaror turizمنى rivojlantirishning ilmiy markaziga aylanishi kutilmoqda. Butunjahon turizm tashkiloti (UN Tourism) bosh kotibi Zurab Pololikashvili "Green University"ga qilgan tashrifida¹³ "Biz mutlaqo yangi va ijodiy muhitga ega universitetda bo'ldik va juda hayratlandik. Ushbu universitet ekologiyani, ekologlarni va barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi. Bu ta'lim tizimida juda muhim va yangi yo'nalishdir. Men vazirni tabriklayman va Prezidentga barqaror rivojlanish hamda barqaror turizمنى davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylantirgani uchun minnatdorlik bildiraman. Bu O'zbekistonning nafaqat mintaqada, balki jahon miqyosida yetakchi o'rinni egallayotganini ko'rsatadi. Bunday universitetlar dunyo miqyosida noyob hisoblanadi va O'zbekiston bu jarayonda yetakchiga aylanmoqda, bu juda quvonarli hol", deya fikr bildirdi¹⁴.

Shuningdek xizmat ko'rsatish tizimi ham yetarlicha rivojlanmayotganligini 4-rasm va 1-jadval ma'lumotlari asosida ham aniqlash mumkin:



4-rasm. 2020–2025 yillar kesimida O'zbekistonda turoperatorlar va joylashtirish vositalari borasida o'zgarishlar statistikasi¹⁵

¹³ <https://dunyo.info/uz/sotrudnichestvo/oon-turizm-budet-sposobstvovat-razvitiyu-ustoychivogo-turizma-v-uzbekistane>
¹⁴ <https://www.facebook.com/AbdulkhakimovAziz/posts/un-tourism-ozbekistonda-barqaror-turizm-rivojini-qollab-quvvatlaydibutunjahon-tu/1296700665798469/>

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O'zbekiston Respublikasida turizm sohasi faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari (2020–2025 yillar). — <https://stat.uz> ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

2020-2025-yillar kesimida joylashtirish vositalari va turoperatorlar soni¹⁶

Yillar	Mexmonxona va shu kabi joylashtirish vositalari soni (dona)	Turoperatorlar soni (nafar)
2020	1620	1190
2021	2200	1250
2022	2600	1320
2023	2800	1390
2024	2900	1420
2025	3050	1450

4-rasmda 2020–2025-yillar oralig'ida turoperatorlar va joylashtirish vositalari sonidagi o'zgarishlar aks etgan bo'lib, bu davr mobaynida turizm infratuzilmasida ma'lum ijobiy o'sish kuzatilgan. 1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, mehmonxona va shu kabi joylashtirish vositalari soni 2020-yildagi 1620 tadan 2025-yilga kelib 3050 taga yetgan, ya'ni taxminan 200 foizga o'sish qayd etilgan. Bu holat mamlakatimizda turizm infratuzilmasining kengayib borayotganidan dalolat beradi.

Biroq turoperatorlar sonidagi o'zgarishlar unchalik sezilarli emas. 2020–2025-yillar davomida ular soni atigi 1190 nafardan 1450 nafargacha oshgan, ya'ni o'sish sur'ati nisbatan past – bor-yo'g'i 260 nafarni tashkil etmoqda. Bu esa sohada xizmatlar diversifikatsiyasi, marketing va innovatsion yondashuvlarning yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganidan dalolat beradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, joylashtirish vositalari infratuzilmasining o'sishi bilan bir qatorda, turoperatorlik faoliyatini takomillashtirish, ularning xizmat sifati va sonini oshirish, yangi turistik mahsulotlar ishlab chiqish zarur. Shu bilan birga, turoperatorlarni xalqaro sertifikatlash tizimlariga integratsiya qilish, raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash orqali ushbu yo'nalishda barqaror xizmat ko'rsatish tizimini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. O'zbekiston Respublikasida barqaror turizmning rivojlanish holati va unga ta'sir etuvchi omillarni tahlil etish natijalari shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda turizm sohasi mamlakat iqtisodiyotining strategik yo'nalishlaridan biriga aylangan bo'lsa-da, bu jarayonda ekologik yondashuvni kuchaytirish, xizmat ko'rsatish sifati oshirish va inson kapitalini rivojlantirish masalalari hanzu dolzarb bo'lib qolmoqda.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, ekoturizmni rivojlantirish va barqaror turizmni shakllantirish uchun quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

1. Ekoturizm industriyasini rivojlantirish uchun maxsus qonun hujjatlarini ishlab chiqish va ularning amaliy ijrosini ta'minlovchi huquqiy mexanizmlarni yaratish.
 2. Ekoturizm fan, ta'lim va amaliyotining nazariy asoslarini shakllantirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini kuchaytirish hamda o'quv dasturlarini xalqaro tajribalar asosida modernizatsiya qilish.
 3. Aholining ekologik ongi va madaniyatini oshirish maqsadida turizm orqali ekologik tarbiyani kuchaytirish, ayniqsa yoshlar orasida ekologik mas'uliyatni shakllantirish.
 4. Ekoturizm sohasida malakali mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish.
 5. Ekoturizm monitoringi va istiqbolini yuritish tizimini yo'lga qo'yish, bu orqali sohaning rivojlanish tendensiyalarini ilmiy asosda baholash.
 6. Hududlarni ekoturizm bo'yicha rayonlashtirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, hududiy ixtisoslashuv asosida turizm tarmog'ini rivojlantirish.
 7. Biologik xilma-xillikni saqlash va ekologik muvozanatni ta'minlash orqali turizm faoliyatining atrof-muhitga salbiy ta'sirini minimallashtirish.
- Umuman olganda, ekoturizmning barqaror rivojlanishi O'zbekistonning ekologik salohiyatini ro'yobga chiqarish, yangi ish o'rinlari yaratish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish

hamda xalqaro imijini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, ekologik jihatdan mas'uliyatli, iqtisodiy jihatdan foydali va ijtimoiy jihatdan adolatli turizm modelini shakllantirish — mamlakatning barqaror rivojlanish strategiyasining ajralmas tarkibiy qismi bo'lishi zarur.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida ichki va tashqi turizm rivojlanishida hali ham yechimini kutayotgan qator tizimli muammolar mavjud. Avvalo, ichki turizm kuzatilayotgan asosiy muammolardan biri ayrim hududlarda turizm infratuzilmasining yetarlicha rivojlanmaganligidir. Garchi mashhur turistik markazlarga bo'lgan talab yuqori bo'lsa-da, chekka qishloq va tarixiy ahamiyatga ega hududlarda zarur sharoitlar, xususan, yo'l-transport tizimi, joylashtirish vositalari va xizmat ko'rsatish infratuzilmasi yetarli darajada shakllanmagan. Bu esa turistik oqimni hududlar kesimida nomutanosib tarzda taqsimlanishiga olib kelmoqda.

Ikkinchidan, ichki turizm marketing va reklama faoliyati yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan. Aholi o'rtasida turizm xizmatlarini targ'ib etish, mintaqaviy turistik brendlarni shakllantirish va raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanish sohalarida sezilarli kamchiliklar mavjud. Natijada, mamlakat ichkarisida turizm xizmatlarining ommalashuvi va aholi talabining kengayishi sust kechmoqda.

Tashqi turizm ham muayyan to'siqlar mavjud. Eng avvalo, ayrim hududlarda turizm infratuzilmasi, transport va kommunikatsiyalar tizimi xalqaro standartlarga to'liq mos emas. Bu esa xorijiy turistlar uchun qulay sharoitlar yaratish borasida qo'shimcha chora-tadbirlar zarurligini ko'rsatadi. Shuningdek, viza siyosati sohasida ham muammolar mavjud. So'nggi yillarda viza rejimini soddalashtirish bo'yicha muhim islohotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, hali ham ko'plab davlatlar fuqarolari uchun vizasiz rejim joriy etilmagan. Natijada, ba'zi sayyohlar viza olishdagi byurokratik murakkabliklar sababli mamlakatimizga tashrif buyurishdan voz kechmoqda.

Mazkur muammolarni bosqichma-bosqich bartaraf etish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Turizm turlarini diversifikatsiya qilish – tarixiy-madaniy yo'nalishlar bilan bir qatorda ekoturizm, sog'lomlashtirish, tibbiy va agro-turizm kabi muqobil yo'nalishlarni rivojlantirish.
 2. Viza siyosatini yanada liberallashtirish – viza olish jarayonini soddalashtirish, elektron viza tizimini takomillashtirish hamda ko'plab mamlakatlar uchun vizasiz rejim joriy etish.
 3. Samarali marketing va xalqaro targ'ibot strategiyasini ishlab chiqish – O'zbekistonning boy madaniy merosi, tabiiy go'zalliklari va turistik imkoniyatlarini jahon auditoriyasiga keng targ'ib qilish.
 4. Turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish – transport tizimini yaxshilash, yangi yo'nalishlarni tashkil etish, mehmonxona va xizmat ko'rsatish maskanlarini zamonaviy talablar asosida qayta jihozlash.
 5. Kadrlar salohiyatini oshirish – turizm sohasida malakali, chet tillarini biladigan va raqamli texnologiyalarni qo'llay oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini takomillashtirish.
- Yuqoridagi chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi natijasida, mamlakatimizda barqaror turizm salohiyatining yanada yuksalishi, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida ijobiy o'zgarishlarga erishilishi, shuningdek, O'zbekistonning xalqaro turizm bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishga erishish mumkin bo'ladi.

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O'zbekiston Respublikasida turizm sohasi faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari (2020–2025 yillar). — <https://stat.uz> ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev raisligida 2020-yilning 22-fevral kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishidagi ma'ruzasi - <https://daryo.uz/k/2018/02/23/shavkat-mirziyoyev-har-bir-turist-investitsiya-video/>.
2. O'zbekiston Xususiy sayyohlik tashkilotlari uyushmasi haqida ma'lumot: <https://orginfo.uz/uz/organization/534f8fa7c621>
3. Vodenska, M. (2020). Factors for (Un) Sustainable Tourism Development. Central European Journal and <https://doi.org/10.47246/CEJGSD.2020.2.1.2>
4. Mai, A., Thi, K., Thi, T., & Le, T. (2020). Factors influencing on tourism sustainable development in Vietnam. Management Science Letters, 10(8), 1737-1742.
5. Astanakulov. O. (2024). Ўзбекистонда туризм самарадорлигини баҳолаш ва уни ривожлантириш истиқболлари. Qo'qon universiteti xabarnomasi, 13, 16-21.
6. Toirova, M., & Yoldoshev, A. (2025). OZBEKISTONDA ICHKI VA TASHQI TURIZM: HOLATI, MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI. Journal of universal science research, 3(4), 103-110.
7. Raimjanova Madina Asrarovna. (2024). O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI . Ta'lim Innovatsiyasi Va Integratsiyasi, 11(8), 10–20. извлечено от <https://web-journal.ru/ilmiy/article/view/2373>
8. <https://gov.uz/oz/uzbektourism/news/view/82136>
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O'zbekiston Respublikasida turizm sohasi faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari (2020–2025 yillar). — <https://stat.uz> ma'lumotlari
10. <https://dunyo.info/uz/sotrudnichestvo/oon-turizm-budet-sposobstvovat-razvitiyu-ustoychivogo-turizma-v-uzbekistane>
11. <https://www.facebook.com/AbdukhakimovAziz/posts/un-tourism-ozbekistonda-bargaror-turizm-rivojini-qollab-guvvatlaydibutunjahon-tu/1296700665798469/>